



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**

**2023-YIL
YANVAR-DEKABR
OYLARI**





Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami **5976,0** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2022-yilga nisbatan **106,5 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.






Qurilish ishlari 2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 976,0	594,8	4 150,2	1 231,0
Nukus sh. tumanlar:	1 896,4	43,1	1 730,7	122,6
Amudaryo	298,4		184,6	113,8
Beruniy	334,0	0,2	191,3	142,5
Bo'zotov	95,5		73,9	21,6
Qorao'zak	268,0	173,6	75,8	18,6
Kegeyli	127,8	9,6	98,1	20,1
Qo'ng'iro't	406,9	82,5	272,4	52,0
Qonliko'l	128,2		46,2	82,0
Mo'ynoq	188,3	110,3	58,0	20,0
Nukus	321,3		245,6	75,7
Taxiatosh	309,3	70,8	198,3	40,2
Taxtako'pir	92,1		76,9	15,2
To'rtko'l	616,0	94,0	347,6	174,4
Xo'jayli	207,2	0,1	132,3	74,8
Chimboy	181,0		50,8	130,2
Shumanay	58,0		16,5	41,5
Ellikqal'a	447,6	10,6	351,2	85,8

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 594,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022-yilga nisbatan 90,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,8 % punktga kamayib, 10,0 % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MA'LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qoraqalpog'iston tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 64,8 % yoki 2022-yilga nisbatan 477,6 %) Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 58,6 % i yoki 2022-yilga nisbatan 92,5 %), Taxiatosh tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 22,9 % yoki 2022-yilga nisbatan 90,9 %) va Qo'ng'iroq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 20,3 % i yoki 2022-yilga nisbatan 60,6 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 69,4 % i to'g'ri kelib, 2022-yilga nisbatan 1,3 % punktga ko'paygan. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022-yilga nisbatan 109,5 % ni tashkil etgan holda 4150,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



69,4

2023-yil
yanvar-dekabr

68,1

2022-yil



MA'LUMOT UCHUN: Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri (1 730,7 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 91,2 %), Ellikqal'a tumani (351,2 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 78,4 %), To'rtko'l tumani (347,6 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 56,4 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **20,6 %** ni tashkil etdi yoki **1 231,0 mlrd.so'm** miqdorida qayd etildi. 2022-yilga nisbatan **105,9 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **112,2 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5 863,8 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **1,9 %** va **98,1 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2023-yil yanvar-dekabr oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **74,8 %** i yoki **4 470,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

12,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **553,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **12,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2 784,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi **62,3 %** ni tashkil etdi.

62,3 %

25,3 %


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 133,1** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **25,3 %** ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2023-yil yanvar-dekabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 976,0	106,5	100,0
Nukus sh.	1 896,4	103,5	31,7
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	298,4	103,9	5,0
Beruniy	334,0	103,7	5,6
Bo'zotov	95,5	143,8	1,6
Qorao'zak	268,0	181,6	4,5
Kegeyli	127,8	101,0	2,1
Qo'ng'iro't	406,9	101,0	6,8
Qonliko'l	128,2	101,9	2,1
Mo'ynoq	188,3	111,2	3,2
Nukus	321,3	100,4	5,4
Taxiatosh	309,3	101,3	5,2
Taxtako'pir	92,1	100,3	1,5
To'rtko'l	616,0	103,6	10,3
Xo'jayli	207,2	109,6	3,5
Chimboy	181,0	128,4	3,0
Shumanay	58,0	103,6	1,0
Ellikqal'a	447,6	103,5	7,5

Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,4 % ni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 0,3 % punktga ko'paygan.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022-yilga nisbatan 0,3 % punktga kamayib, 64,3% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 28,3 % ni tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 17,1 % ni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 4,3 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 82,9 % ni tashkil etdi.

ulushi % da




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022-yilga nisbatan 16,8 % punktga kamaydi va 14,9 % ni tashkil etdi. Qolgan, 85,1 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilga nisbatan 16,8 % punktga ko'paydi.



Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2023-yil yanvar-dekabr oylari



ulushi % da



Qoraqalpog'iston Respublikasi
Statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (61) 222-75-91